

---

## Qo'shtepa tumanida "Ta'lim va kasb" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi

Farg'ona viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamkorligida o'tkazib kelinayotgan oliy ta'lim qamrovini oshirish bo'yicha navbatdagi ko'rgazmali targ'ibot tadbiri Qo'shtepa tumanida bo'lib o'tdi.

"Istiqlol" madaniyat markazida bo'lib o'tgan mazkur tadbirda tumandagi 49 ta umumta'lim maktablaridan jami 1550 nafardan ziyod o'quvchi yoshlar ishtirok etdilar.

Unda Farg'ona viloyatidagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari vakillari o'zlari faoliyat olib borayotgan ta'lim dargohi to'g'risida bitiruvchilarga ma'lumotlar berdilar.

Mazkur tadbirdan ko'zlangan maqsad, bitiruvchilarning oliy ta'limga qamrovini oshirish, yoshlarning o'z qiziqishlaridan kelib chiqib oliy ta'limda to'g'ri yo'nalish tanlashlariga ko'maklashish, shuningdek, bir joydan turib barcha oliy ta'lim muassasalari to'g'risida to'liq ma'lumot olishlariga imkoniyat yaratishdan iboratdir.





















---

2024-12-03 15:40:27